



KORRUPSIYA VA PORAXO'RLIK JINOYATIGA OID MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI SAY HARAKATLAR

Elomonov Bekzod Alimardon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Kiber huquq fakulteti magistri

E-mail: Elomonovbekzod97@gmail.com

tel:998048576

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7408867>

ARTICLE INFO

Received: 01st December 2022

Accepted: 05th December 2022

Online: 07th December 2022

KEY WORDS

Korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, poraxo'rlik, pora olish, pora predmeti, davlat xizmatchisi, mansabdor shaxslar.

ABSTRACT

Maqolada "korrupsiya" tushunchasi, uni talqin etishga nisbatan bo'lgan yondashuvlar xalqaro tashkilotlarning ta'riflari, olimlarning qarashlari hamda O'zbekiston Respublikasining sohaga oid qonun hujjatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilgan holda o'rganildi. Shuningdek, maqolada "korrupsiya" va "poraxo'rlik" tushunchalarining o'zaro munosabatiga oid fikrlar bayon qilinib, korrupsiyaviy jinoyatlar sirasiga kiruvchi jinoyatlar ko'rsatib o'tildi.

Bugungi kunda korrupsiya mamlakat rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi, demokratiyani amalga oshirishga hamda millatning rivojlanishiga iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ta'sir etuvchi keng tarqalgan va o'ta xavfli hodisa hisoblanishi butun dunyoda unga qarshi kurashishning dolzarb ekanligini ko'rsatadi. BMT bergan ma'lumotlarga ko'ra, korrupsiya tufayli hozirda har yil jahon iqtisodiyoti 2,6 trln. AQSH dollar mablag'dan ayriladi, shuningdek, 1 trln. AQSH dollar miqdorida pora beriladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaning olidini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"¹. Shu nuqtayi nazardan ham

O'zbekistonda bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qator samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2017-yilning 3-yanvarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risi"gi Qonunning qabul qilinishi korrupsiyaga qarshi kurashishda va uning asoslarini yaratishda muhim qadam bo'ldi. Islohatlarning davomi sifatida shu yilning iyun oyida to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadigan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Bu esa o'z navbatida Transparency International xalqaro tashkilotining bergan ma'lumotlariga asosan O'zbekistonni korrupsiyadan holi hudud sifatida dunyo reytingida 2016 va 2021-yillar oraliqida 156dan 140-o'ringa ko'tarilishga xizmat qildi. Bundan tashqari poraxo'rlik masalasida ham sezilarni natijaga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bergan ma'lumotlariga nazar soladigan bo'lsak,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25.01.2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (www.pv.uz)



2019 yilda 177 ta, 2020 yilda 161 ta, 2021 yilda 91 ta pora olish jinoyati sodir etilgan bo'lib, pora olish jinoyati oxirgi uch yilda deyarli 50 foizga kamaygan. Yoki bo'lmasa, joriy yilning o'tgan 5 oyi davomida 17 ta pora olish jinoyati sodir etilgan bo'lib, bu o'tgan 2021 yilning 5 oyiga nisbatan (2021 yilning 5 oyida 57 taga pora olish jinoyati sodir etilgan) 40 taga kam hisoblanadi².

Korrupsiya korrupsiyaviy jinoyatlarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladi. E'tiborlik jihati shundaki, aksariyat hollarda "korrupsiya" atamasini mukliy ko'rinishdagi naf olishga qaratilgan poraxo'rlik jinoyati sifatida tushuniladi. Vaholanki, korrupsiyaviy jinoyatlar faqatgina poraxo'rlik jinoyatidagina iborat bo'lmaydi. Korrupsiyaga oid jinoyatlar tushunish uchun, avvalo, ushbu atama qanday ma'no anglatishini bilib olish lozim.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining yurish-turish kodeksi"ga asosan korrupsiya bu mansabdor shaxsning har qanday shakldagi manfaati evaziga o'z mansab vakolatlarini doirasida mazkur manfaatlarni taqdim etuvchi shaxs foydasini ko'zlab sodir etilgan harakat yoki harakatsizligidir. Bu kabi yondashuvni ba'zi bir xorij olimlari ham qo'lab quvvatlagan holda korrupsiyani boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari hisoblashadi³.

2

<https://anticorruption.uz/uzc/item/2022/06/20/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-agentligi-tomonidan-otkazilgan-pora-olish-bilan-bogliq-zhinoyatlar-tahlili-yuzasidan-brifing>

³ Кадиков В.М Некоторые проблемы коренной трансформация экономического

Yuqoridagi ta'riflarda korrupsiyaviy jinoyatlarni faqatgina mansabdor bo'lgan shaxslarini sodir etilishi mumkinligini nazarda tutmoqda va boshqa xizmat mavqeyiga ega bo'lgan shaxslar doirasini o'z ichiga olmaganligi jihatdan ham ko'rilayotgan tushunchani to'liq mazmunini ochib berishga xizmat qilmaydi.

Xalqaro Transparency International tashkiloti korrupsiya tushunchasini "o'ziga ishonib berilgan vakolatlarini o'z manfaatlari uchun suiiste'mol qilish" sifatida hamda korrupsiya illati nafaqat davlat organlari sohasida, balki boshqa barcha sektorlarda ham yuz berishini mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Kolin Ney ham ushbu qarashlarga qo'shilgan holda "Korrupsiya moddiy yoki biron bir mavqeyga chiqish maqsadida rasmiy vazifasidan chetga chiqqan holda qoidalarni buzishdir"⁴, - deb aytib o'tgan.

Fikrimizcha ushbu yondashuvlar boshqalariga qaraganda kengroq ya'ni faqatgina mansabdor shaxs doirasi bilan cheklanib qolmay, qolgan barcha har qanday xizmat mavqeyiga ega bo'lgan shaxslar doirasini ham qamrab oladi. Shunga qaramay, bu ta'riflarda o'zga shaxsning manfaatlari ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish kabi masalalar nazarda tutilmaganligi, faqat shaxsning o'z manfaatini ko'zlagan holda korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etilganligi boisdan ham to'liq korrupsiya mazmunini ochib bergan deya olmaymiz.

O'zbekistonda ham ushbu tushunchaga qonuniy ta'rif berilgan. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi

механизма и криминализации российской экономики-М.,1996-С. 85-96

⁴ Inge Amundsen, Political Corruption: An Introduction to the Issues Inge Amundsen, p-2.



kurashish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga binoan korrupsiya sifatida shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushiniladi.

Qonunchiligimizdagi korrupsiyaga berilgan ushbu ta'rif boshqa xalqaro tashkilotlar hamda olimlar yondashuviga qaraganda mukammal hamda keng qamrovli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida korrupsiyaviy jinoyatlarning aniq bir ro'yxati nazarda tutilmagan. Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, korrupsiyaviy jinoyatlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida ko'rsatilgan iqtisodiy sohadagi, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlarni, shuningdek, shaxsiy manfaat yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab tamagirlik niyatida mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan hamda jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirish va poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlar keltirishimiz mumkin.

Poraxo'rlik bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar korrupsiyaviy jinoyatlarning nafaqat boshqa xorijiy mamlakatlarda, balki O'zbekistonda ham keng tarqalgan turidan biridir. Poraxo'rlik davlat xizmatchisiga o'z xizmat vazifalarini bajarishda ta'sir o'tkazish uchun korrupsiya maqsadida pul yoki boshqa biron bir narsani va'da qilish, berish, olish yoki olishga rozi bo'lishda ifodalangan harakatdir. Jinoyat huquqiga oid adabiyotlarda "poraxo'rlik" tushunchalari

har xil ma'noni anglatadi. Tor ma'noda pora olish jinoyati nazarda tutilgan bo'lsa, keng ma'noda uchta jinoyat tarkibini: pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilishni qamrab oladi⁵. Ayrim olimlar bularni yagona jinoyat – porxo'rlik deb hisoblashsa, ba'zilar ularni mustaqil jinoyat deb qarashadi. B.V.Zdravomislov poraxo'rlik jinoyatlarini har biri o'ziga xos bo'lgan harakat tasnifi, qasdning mazmuni va subyekt belgilari bo'lgan mustaqil jinoyat deb qaraydi⁶. O'ylaymizki, poraxo'rlikni bir biridan mustaqil jinoyatlar sifatida emas balki, bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks tushuncha sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Pora predmeti deganda odatda pora oluvchi pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab qandaydir hatti-harakatni sodir etishi yoki sodir etmasligi uchun nima evaziga og'dirilganligi tushiniladi. Pul, qimmatbaho qog'ozlar, moddiy boyliklar, shuningdek, pora oladiganga qaytarmaslik sharti bilan, lekin mulkiy mohiyatga molik bo'lgan (masalan, ta'mirlash, qurilish, qayta tiklash ishlarini bajarish va boshqalar) xizmatlar pora predmeti bo'lishi mumkin⁷.

Poraxo'rlik jinoyatlarining boshqa ko'plab, xususan korrupsiyaviy jinoyatlardan farqli jihati jinoyat subyeksi sifatida bir emas kamida ikki subyektning ishtirok etishidir. Sababi aynan bu qilmishda biri ikkinchisini taqoza etadi. Masalan, pora beruvchi bo'lmasa, oluvchi

⁵ R.A. Zufarov "poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik" 15-b.

⁶ Б.В.Здравомыслов. Должностные преступления. Понятие и квалификация. М., 1971. 124-б

⁷ "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy Sud plenum qarori, 2-band.



ham bo'lmaydi yoki buning aksi bo'lganda poraxo'rlik jinoyatlarni sodir etilmaydi. Pora oluvchi va beruvchi bo'lgandagina vositachi ham mavjud bo'ladi.

Poraxo'rlik jinoyatlarining asosiy protsessi pora olishda namoyon bo'ladi. Pora olganlik uchun jinoiy javobgarlikka faqat davlat, kooperativ, jamoat va boshqa korxonalar, muassasa va tashkilotlarda mansabdorlik vazifasini doimiy yoki vaqtinchalik bajarayotgan xodimlar tortiladi⁸.

Mansabdor shaxs deganda doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan⁹, bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, ijroiya vakolatga ega ya'ni zimmasiga mansab majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan maxsus vakolatlar yuklatilgan shaxs tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarni o'z ichiga qamrab

oladi. Bularga pora olish (210-modda), pora berish (211-modda), pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda) kabilar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida mavjud bo'lgan ba'zi jinoyatlar ya'ni davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish (213-modda) hamda davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi (214-modda) bir qarashdan poraxo'rlik bilan bir xildek tuyilsada, aslida esa bular umumiy asoslarga ko'ra korrupsiyaviy jinoyatlar hisoblanadi.

Korrupsiya tushunchasidan kelib chiqqan holada aytishimiz mumkin, O'zbekiston Respublika Jinoyat kodeksi bir qanch jinyatlarni korupsion jinoyatlar deb atasak bo'ladi. Bularga bevosita O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish, Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish, chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlarini kiritishimiz mumkin. Aynan shundan kelib chiqqan holda korrupsion jinoyatlarni mazmunini to'liq anglab yetish uchun O'zbekiston Jinoyat kodeksidagi ushbu jinoyatlarni yagona korrupsiyaviy jinoyatlar deb atalgan bo'lmda jamlash maqsadga muvofiq.

⁸ "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy Sud Plenum Qarori, 1-band.

⁹ "Davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining qonun hujjatalariga muvofiq bo'lmagan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarni haqiqiy emas deb topish, ular mansabdor shaxslarning shunday harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi nizolarni hal etishda qonuniy hujjatlarni qo'llashning ayrim masalalari haqida" Oliy Xo'jalik Sudi Plenum Qarori, 3-band.



Bu orqali bir qator muammolarga barham beriladi. Xususan, fuqarolar orasida qanday turdagi jinoyatlar korrupsiyon jinoyatlar ekanligi borasidagi qarashlarini to'liq shakllanishiga shuningdek qonunchilikni qo'llovchi subyektlar tomonidan ham korrupsiyon jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni aniqlashda hamda ularga jazo berishdan hech qanday yonbosishlarsiz adoltni tizimni olib borishlariga zamin yaratilgan bo'ladi. Qo'shimcha ravishda korrupsion jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish orqali ham ushbu turdagi qilmishlarni sezilarli darajada oldini olishga zamin yaratishi mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, korrupsiyaviy jinoyatlar poraxo'rlik, qolaversa jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa qilmishlarni ham o'z ichiga oladi hamda pora olish va berish bilan bog'liq jinoyatlardan farqli ravishda nafaqat davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida, balki boshqa malakatdagi barcha sektorlarda ham yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, javobgar subyekt sifatida mansabdor shaxslardan tashqari boshqa mansab yoki xizmat mavqeyiga ega bo'lgan shaxslar ham ishtirok etadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25.01.2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (www.pv.uz)
2. <https://anticorruption.uz/uzc/item/2022/06/20/korruptsiyaga-qarshi-kurashish-agentligi-tomonidan-otkazilgan-pora-olish-bilan-bogliq-zhinoyatlar-tahlili-yuzasidan-brifing>
3. Кадиков В.М. Некоторые проблемы коренной трансформация экономического механизма и криминализации российской экономики.
4. Inge Amundsen, Political Corruption: An Introduction to the Issues.
5. R.A. Zufarov "poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik"
6. Б.В.Здравомыслов. Должностные преступления. Понятие и квалификация.
7. <https://www.transparency.org/>
8. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun.
9. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.
10. "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy Sud Plenum Qarori.
11. "Davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining qonun hujjalariga muofiq bo'lmagan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarni haqiqiy emas deb topish, ular mansabdor shaxslarning shunday harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi nizolarni hal etishda qonuniy hujjatlarni qo'llashning ayrim masalalari haqida" Oliy Xo'jalik Sudi Plenum Qarori.